
"YANGI O'ZBEKISTON - YANGICHA DUNYOQARASH" TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

"Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzusida mahallalar aholisi va yoshlar uchun tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar Qo'shtepa tumanida davom etmoqda. Ushbu tadbir bugun Namuna mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining majlislar zalida bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirlar tumanda yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbusni hayotga samarali tatbiq etish, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazish maqsadida "mahallabay" tashkil etish, aholi kayfiyatini ko'tarish maqsadida o'tkazilmoqda.

Bugungi tadbirda tuman hokimi I.Novikov ishtirok etdi.



Shuningdek, Farg'ona politexnika instituti tarix kafedrası katta o'qituvchisi I.Raxmonov, Namuna mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari, mahalladagi aholi va yoshlar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida xonanda K.Fozilov, yosh askiyachi O.Rashidov va 35-maktabning iste'dodli o'quvchilari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar va vatanimizni madh etuvchi she'rlar ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.



Tadbirda maktabning yosh sportchilari, kikkoxsing turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda viloyatimizda faxrli 1-2-3-o'rinni egallagan M.Rajabov, I.Olimov, M.Ibroximov, shaxmat bo'yicha viloyatda o'tkazilgan musobaqada faxrli 3-o'rinni egallagan A.Soyipov, ingliz tili bo'yicha IELTS sertifikati olgan G.Yoqubovalarga tuman hokimi tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Targ'ibot tadbiri davomida bolajonlar o'rtasida sport musobaqalari bo'lib o'tdi va hunarmandlar, tadbirkorlar tomonidan yarmakalar tashkil etildi.

Shuningdek, ushbu tadbirlar Yangiariq, Xumdon, Shomirza mahalla fuqarolar yig'inlarida ham bo'lib o'tmoqda.

N.Otabekov,

Ma'naviyat va marifat markazi tuman kengashi rahbari.

2020-11-16 21:03:56